

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TARMOQLAR IQTISODIYOTI KAFEDRASI**

*Qo'lyozma huquqida*  
*UDK:330.59 (575.1)*

**TURSUNQULOV JAHONGIR FURQAT O'G'LI**

**O'ZBEKISTONDA MINIMAL ISTE'MOL XARAJATLARI QIYMATINI  
HISOBLASH TARTIBI VA BU BORADA XORIJIY MAMLAKATLAR  
TAJRIBALARI**

**70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**

**mutaxassisligi bo'yicha**

**Magistr**

**akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**i.f.d. professor B.T.Salimov**


**TOSHIKENT-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

46-sonli bayannoma ' 2 ' may 2023 y.

Ilmiy rahbar:

B.T.Salimov

  
imzo \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_


Tinglovchi:

J.F.Tursunqulov

  
imzo \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "25" "05"  
№ 2/21 raqami bilan ro'yxatga olingan

**"Himoyaga ruxsat etiladi"**

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası  
mudiri dots. I.Xotamov 

" 8 " " 05 " 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida

2023 yil "29" "05" soat "10<sup>00</sup>" da bo'ladi.

## ANNOTATSIYA

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil va analiz qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning turmush tarzi va hayot farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal va samarali rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida:

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishi mamlakatimizda kambag'allikni (qashshoqlikni) qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish va bunda aholining maqsadli guruhlarini aniqlash bo'yicha vazifalar aniq bir mezon va uslubiy yondashuvlarning yanada samarali ishlab chiqilishini talab etadi.

O'z navbatida, ushbu uslubiy yondashuv va iqtisodiy-statistik bazani shakllantirish aholining turmush sharoiti va ijtimoiy holatini bevosita o'zida nomoyon ettiruvchi, ya'ni ularning minimal iste'mol xarajatlari tarkibi va xususiyatlari bo'yicha real holatni ifodalovchi va nomoyon etuvchi ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** *Minimal iste'mol xarajatlari, iste'mol, kambag'allik, kambag'allik chegarasi, minimal kilokaloriya, protsentil, real iste'mol qiymati, target guruhi, uy xo'jaligi, Engel koeffitsiyenti, uy xo'jaligi.*

## SUMMARY

Based on the in-depth analysis of complex global processes and the results of our country's progress, in the following years, based on the principle of 'For human dignity', we will further increase the well-being of our people, transform economic sectors and rapidly develop entrepreneurship, unconditionally ensure human rights and interests, and in order to determine the priority directions of reforms aimed at forming an active civil society:

This thesis requires the development of specific criteria and methodical approaches to reduce poverty in our country and increase the effectiveness of measures to provide social support to needy families, as well as to determine the target group of the population.

On the other hand, this methodical approach and the formation of the base, the calculation of indicators that directly reflect the living conditions and social status of the population, i.e, represent the real situation in terms of their consumption structure and characteristics, are of great importance.

**Key words:** *Minimum consumption expenditure, consumption, poverty, poverty line, minimum kilocalorie, percentile, real consumption value, target group, household, Engel coefficient, household.*



## MUNDARIJA

ANNOTATSIYA.....	3
Mundarija.....	5
KELTIRILGAN JADVALLAR RO'YXATI.....	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO'YXATI.....	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR.....	8
<b>I BOB. KIRISH.....</b>	<b>9</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti.....	15
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	15
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	16
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI.....</b>	<b>18</b>
2.1. O'zbekistonda yashash minimumi va iste'mol savatchasi amalda qonun bilan mustahkamlanganligining natijalari.....	18
2.2. Tadqiqot gipotezasi.....	26
<b>III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....</b>	<b>27</b>
3.1. Ma'lumotlar manbalari.....	27
3.2. Tadqiqot dizayni.....	28
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	28
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	30
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi....	30
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	32
<b>IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>33</b>
4.1. O'zbekistonda minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalari.....	33
4.2. Iste'mol savatchasining hozirgi holati va uni shakllantirish yo'nalishlari.....	46
<b>V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>62</b>
5.1. Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar.....	62
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	64
5.3. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati .....	66
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>68</b>

## I. KIRISH

### 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizning milliy iqtisodiyotini tubdan rivojlantirishga bo'lgan islohotlar amalga oshirila boshlandi. Hozirgi kunga kelib, barcha sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar va barqaror rivojlanish borasidagi iqtisodiy jarayonlar minimal iste'mol xarajatlariga ham ta'sir o'tkazmaydi deb aytish qiyin. Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish va bunda aholining maqsadli guruhlarini aniqlash bo'yicha vazifalar aniq bir mezon va uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilishini talab etadi.

O'z navbatida, ushbu uslubiy yondashuv va bazani shakllantirish aholining turmush sharoiti va ijtimoiy holatini bevosita o'zida aks ettiruvchi, ya'ni ularning iste'mol tarkibi va xususiyatlari bo'yicha real holatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi<sup>4</sup>.

Milliy kambag'allik chegarasini hisoblab chiqishda ko'rsatkich juda yuqori yoki past bo'lib qolmasligi muhim ahamiyatga ega. Agar ko'rsatkich yuqori darajada belgilansa, bu, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, xorij mamlakatlari va iqtisodchilarning fikricha, quyidagi oqibatlariga olib kelishi mumkin:

- moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanishi. Yashirin iqtisodiyot ulushi kattaligicha qolaveradi — hozirda iqtisodiyot tarmoqlarida band 11 million kishining deyarli 5 millionga yaqini daromad solig'i to'lamoqda;
- aholining iqtisodiy faolligiga salbiy ta'sir (boqimandalik kayfiyatining rag'batlantirilishi);

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'isida"gi PF-4947-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).